



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i04.050>

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SURXON VOHASIDA XOTIN-QIZLAR MASALASI

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna

*O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara
qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik
litseyi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası tarix
fani bosh o'qituvchisi*

e-mail: boltaevagulnoza70@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-3250-9663>

UDK: 94(575.1).

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida Surxon vohasi xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar va sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan "Hujum" kampaniyasining mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida xotin-qizlar bo'limlari faoliyati, savodsizlikni tugatish, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar hamda ushbu jarayonlarning an'anaviy jamiyat bilan to'qnashuvi natijasida kelib chiqqan ziddiyatlarni yoritib beradi. Maqolada islohotlarning ham ijobiy natijalari, ham mahalliy ayollar taqdiriga yetkazgan ma'naviy va jismoniy zararlari xolis baholangan.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, xotin-qizlar masalasi, "Hujum" harakati, sovet siyosati, savodsizlikni tugatish, an'anaviy jamiyat, ijtimoiy faollik, qatag'on, paranjini tashlash.

Аннотация. В данной статье анализируются изменения в социально-политической жизни женщин Сурханского оазиса в 20-30-е годы XX века и региональные особенности кампании «Худжум», проводимой советской властью. На основе архивных документов и исторических источников автор освещает деятельность женских отделов, ликвидацию неграмотности, реформы в системе здравоохранения, а также конфликты, возникшие в результате столкновения этих процессов с традиционным обществом. В статье объективно оцениваются как положительные результаты реформ, так и моральный и физический ущерб, нанесенный судьбам местных женщин.

Ключевые слова: Сурханский оазис, женский вопрос, движение «Худжум», советская политика, ликвидация безграмотности, традиционное общество, социальная активность, репрессии, раскрепощение женщин.

Abstract. This article analyzes the changes in the socio-political life of women in the Surkhan oasis during the 20s and 30s of the 20th century and the regional characteristics of the "Hujum" campaign implemented by the Soviet government. Based on archival

documents and historical sources, the author highlights the activities of women's departments, the elimination of illiteracy, reforms in the healthcare system, and the conflicts resulting from the collision of these processes with traditional society. The article provides an objective assessment of both the positive results of the reforms and the moral and physical damage caused to the lives of local women.

Keywords: Surkhan oasis, women's issue, "Hujum" movement, Soviet policy, elimination of illiteracy, traditional society, social activity, repression, unveiling.

Kirish. XX asrning birinchi choragi O'zbekiston, xususan, uning janubiy sarhadi hisoblangan Surxon vohasi ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilishlar davri bo'ldi. Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan jamiyatning barcha qatlamlari kabi xotin-qizlar hayotida ham ziddiyatli islohotlar boshlandi. Bu davrda amalga oshirilgan "ayollarni ozodlikka chiqarish" siyosati bir tomondan xotin-qizlarning savodxonligini oshirish va ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishni maqsad qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlar va diniy e'tiqodlarga qarshi qaratilgan keskin choralari bilan xarakterlanadi.

Surxon vohasining o'ziga xos geografik joylashuvi, kuchli an'anaviylik muhiti va etnik tarkibi bu jarayonning boshqa hududlarga nisbatan ancha og'ir va murakkab kechishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda ushbu davr tarixini xolis o'rganish, sovet mafkurasi ostida o'tkazilgan islohotlarning ham ijobiy natijalarini, ham mahalliy ayollar hayotiga yetkazgan ma'naviy va jismoniy zararlarini tahlil qilish tarix fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1920-1930-yillarda Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod, Sho'rchi va Termiz kabi tumanlarda xotin-qizlar masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, ularning jamiyat hayotidagi o'rni, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi ilk qadamlarini tarixiy manbalar asosida ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi va "Hujum" harakati tarixi turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida o'rganilgan. Sovet davri adabiyotlarida bu jarayon asosan "ayollarning qorong'ulikdan nurga chiqishi" va sotsialistik tuzumning g'alabasi sifatida biryoqlama talqin qilingan. Biroq, Mustaqillik yillarida ushbu mavzuda xolis va tanqidiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

S. Tursunov, E. Qobulov va B. Murtazoyev kabi olimlarning "Surxondaryo tarixi" hamda vohaning turli tumanlari (Termiz tuman tarixi, Termiz tarixi, Sho'rchi tarixidan lavhalar, Sherobod tarixidan lavhalar, Denov, Boysun) tarixiga bag'ishlangan monografiyalari maqolaning fundamental asosi bo'lib xizmat qildi. Ushbu asarlarda ilk bor arxiv hujjatlari asosida vohadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xotin-qizlar bo'limlari faoliyati hududiy kesimda yoritilgan.

Ya.A. Abdullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollar masalasining ijtimoiy-siyosiy aspektlari, ayniqsa, an'anaviy jamiyatda sovet islohotlarining huquqiy va ma'naviy oqibatlari chuqur tahlil etilgan.

Q.V. Nishonboyevaning ishlarida esa 20-30-yillardagi xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlarini, savodsizlikni tugatish va bu jarayondagi ziddiyatli natijalar xolis baholangan.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Surxon vohasi misolida ayollar taqdiri va "Hujum" kampaniyasining mintaqaviy xususiyatlari hali ham keng qamrovli va yaxlit tadqiqotlarga muhtoj.

Maqolani tayyorlashda tarixiy tadqiqotlarning quyidagi zamonaviy metodlaridan foydalanildi:

Tarixiylik va obyektivlik tamoyili: 20-30-yillardagi voqealar o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhitidan kelib chiqib, mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda, xolis baholandi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil (Comparative method): Surxon vohasining turli tumanlaridagi (Boysun, Sherobod, Termiz) jarayonlar o‘zaro qiyoslanib, hududiy o‘xshashlik va farqlar aniqlandi.

Xronologik yondashuv: Xotin-qizlar masalasining rivojlanish bosqichlari 1919-yildagi ilk bo‘limlardan to 1930-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida ketma-ketlikda o‘rganildi.

Tizimli tahlil: Ayollarga nisbatan yuritilgan siyosat ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan bir butun tizim sifatida tasniflandi hamda uning salbiy va ijobiy oqibatlari guruhlariga ajratildi.

Muhokama. Sovet hukumatining o‘zbek xotin-qizlarini “ozodlikka chiqarish”dek murakkab ishi 1919-yil 12-noyabrda RKP(b)ning Turkiston o‘lka qo‘mitasida xotin-qizlar bo‘limini tashkil etishdan boshlangan edi. Keyinchalik u Turkiston KP Markaziy Qo‘mitasi xotin-qizlar bo‘limiga aylantirildi. 1920-yil oxiriga kelib respublikada 40ga yaqin xotin-qizlar bo‘limlari faoliyat yuritdi[9]. 1927-yilda O‘zbekiston SSRda sovet rahbarlari tashabbusi bilan “Hujum” deb nomlangan siyosiy kampaniya boshlandi. Uning maqsadi – o‘zbek ayollarini “feodal-milliy asorat”dan “ozod qilish”, ularni sovet jamiyatining teng huquqli a‘zosi sifatida shakllantirish edi. “Hujum”ning tashkiliy markazi sifatida “Ayollar bo‘limi” faoliyat yuritdi. Tashviqotdagi ibot ishlari davomida ayollardan paraji va niqoblarni yechish, jamoat ishlarida qatnashish, ta‘lim olishga kirishish talab qilindi. Bu siyosat qog‘ozda ozodlik sifatida ko‘rsatilsa-da, mahalliy aholi orasida juda katta ijtimoiy qarama-qarshiliklar keltirib chiqardi.

Sovet hokimiyati dastlabki yillarida xotin-qizlarni jamiyat hayotidagi ishtirokini ta‘minlash masalasida ma‘lum ma‘noda tadbirlar o‘tkazilib, ayollarni ijtimoiy himoya qilish, savodsizlikni tugatish, ishlab chiqarishga jalb etish sohasida beryoqlama siyosat amalga oshirildi. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi sovet xukumatini omma orasida ta‘sirini mustahkamlash va Markaz manfaatlariga moslashtirgan holda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi milliy urf-odatlar, an‘analari va marosimlarni kamsitish, oila e‘tiqodlari xos bo‘lmagan Yevropa urf-odatlarini mahalliy xotin-qizlarga singdirish sohasida ko‘plab qo‘pol xatolar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan sovet xokimiyati yillarida o‘zbek xotin-qizlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etib, milliy g‘urur va e‘tiqodlarni himoya qilgan holda jamiyat hayotida katta o‘zgarishlar qilishda qatnashdi.

1927-yilda Boysun rayonida xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limi tashkil etilib, bo‘limga o‘z davrining ilg‘or ayollaridan biri arman millatiga mansub Susanadjon Rais, Kubil esa kotib etib saylashdi. Keyinchalik Bayna Qurbonova, Roziya Poyonova, Sharofat Xaytova mudira etib tayinlandilar[7].

1926-1927-yillarda rayon firqa va ijroiya qo‘mitasida mas’ul vazifalarda ishlagan Boysunlik To‘xta Rasulova, Momaqiz Solixova, Tufa Sultonova, To‘tti Sultonova, Norhol Sultonova, Anbar Yoqubova kabilar ijtimoiy ishlab chiqarishiga ishtirok etdi. Ana shundaylardan biri Boysunning Sho‘rsoy qishlog‘idan bo‘lgan. Siyosiy hokimiyat uchun kurash jaraayonida ko‘plab xotin-qizlar ayovsiz jazolandi. Jumladan, Boysunlik **Istinoy Bo‘ronova** 1922-yilning bahorida fojiali halok bo‘ldi[7].

1928-1929-yillarda mahalliy xotin-qizlardan mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e‘tibor berila boshladi. Dastlabki bilim olgan bir gurux yoshlar Toshkentga turli o‘quv yurtlariga yo‘llanma bilan yuborildi. Boysun tuman xotin-qizlar bo‘limi yo‘riqchisi bo‘lgan Sharofat Xayitova ayollar orasida samarali ish olib berdi. 1926-yildan boshlab Surxondaryo okrugida xotin-qizlar qurultoyi o‘ta boshladi. Ana shunday qurultoylardan biri Boysun tumanida ham o‘tkazildi. Bu qurultoylarda dolzarb masalalar qo‘yildi. 1930-yillarning boshlarida Surxon xususan Boysun xotin-qizlari turli xo‘jalik va rahbarlik ishlariga faol ishtirok eta boshladilar[7].

1927-yil “Paranjiga” qarshi boshlangan keskin hujum maorifga katta ta’sir ko‘rsatdi. Hujum davrida Boysunda 2 ta (Boysun markazi va Darbandda) savodsizlikni bitirish maktabi ochilib, ularga qariyb 120 nafar o‘zbek va tojik ayollari o‘qidi[7].

Sherobodda 1923-1931-yillarda iqtisodiy xo‘jalik hayotiga xotin- qizlarning faol ishtirok etishi kuchaydi. 1925-yil Sherobodda firqa qo‘mitasi xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limi tashkil etilib, Fotima Alimova mudir etib tayinlandi. Lekin ayollarning ma’rifat, ozodlik yo‘lidagi harakatlari qattiq zarbaga uchradi. Sherobodagi Charingar guzaridan paranjisini tashlab, ozodlikka chiqqan Xojar Boboqulovani 1926-yil bahorida otib o‘ldirishdi. 1928-1929-yillarda sherobodlik T. Primova, Ko‘kko‘zoy Madiminova, Boyguchchiyevalar pillachilik texnikumida o‘qib, o‘z yurtlariga yetuk mutaxassis bo‘lib qaytdilar. 1926-yildan boshlab Sherobod firqa qo‘mitasida xotin-qizlar bo‘limiga boshliq bo‘lgan. Eshmurodova Ro‘ziy 1928-1929-yillarda II-III butun O‘zbekiston kengashining qurultoyida qatnashib, O‘zbekiston hukumatining a’zosi bo‘lib qatnashdi. Uning tashabbusi bilan Sherobodda kutubxona, xotin-qizlar to‘garaklari, badiiy xalq teatri, xotin-qizlar qizil choyxonasi, yangi urf-odatlar va an’analar kabi o‘nlab tashkiliy-tarbiyaviy ishlar bajarildi[5].

1928-yilda Sho‘rchi rayoni hududidagi Qorliq qishlog‘ida 25 o‘rinli kasalxona va ambulatoriya faoliyat ko‘rsatib, 1935-yilda rayon markazida dastlabki shifoxona ish boshladi. Kasalxonaga yagona oliy ma’lumotli mutaxassis ayol A.Shatkovskaya rahbarlik qilib, 13 ta xodim ishlagan, ularning 4 nafari maxsus o‘rta ma’lumotli, 4 nafari hamshira, 5 nafari xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishilar bo‘lgan[4].

1929-yilda Termiz shahrida ilk bolalar bog‘chasi tashkil etildi. 1932 yilda shadarda faoliyat yuritayotgan bolalar bog‘chalarining soni 5 taga yetib, unda tarbiyalanayotgan bolalar soni 1089 nafarni tashkil etdi . Bu hol shahardagi ayollarni ishlab chiqarishga jalb etish kuchayib borganini ko‘rsatadi.

Ayollarga nisbatan olib borilgan siyosatning salbiy (oqibatlari) tasnifini quyidagi uch shaklda ko‘rish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy g‘oyaviy sohada: xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishni tezlashtirish oqibatida ayollar moddiy va ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan jabr ko‘rdilar. Sovetlarning bu siyosatiga qarshi mitinglar, qo‘zg‘olonlar olib bordilar. Buning oqibatida

ularning ko‘pchiligi qamoqqa olindi, qatag‘on qilindi. Sovet qonunlarida e‘lon qilingan “ozod ayollar huquqi” amalda toptaldi. Ayollarning o‘zlarida tuzumga nisbatan salbiy ijtimoiy-siyosiy fikrlar paydo bo‘ldi.

2. Huquqiy, ma‘naviy-tarbiyaviy sohada: onalik va bolalikni muhofaza qilish haqidagi qonunlarda aniq muhofaza moddalarini kam edi. E‘tiqod erkinligiga qarshi jangarilar ateizm siyosati olib borildi. Diniy qadamjolariga nisbatan nafrat hissi uyg‘otildi. Milliy rasm-rusumlar o‘rniga “sovetcha” urf-odatlar joriy qilindi. Ayollar va bolalar ommaviy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilindi. Ekologik inqiroz natijasida ayollar har xil kasalliklarga chalindi, bolalar va xotin-qizlar orasida o‘lim soni ko‘paydi.

3. Iqtisodiy sohada: ayollarni muhofaza qilish haqida qonunlar qabul qilish bilan bir qatorda, og‘ir jismoniy mehnatga jalb qilish bo‘yicha qo‘shimcha, maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqilganligida, jismoniy og‘ir mehnatda ishlashga rozi bo‘lmagan ayollarni majburlash, xo‘rlash, haqoratlash, hatto qamoqqa olishlarda ko‘rindi. Boy xotin-qizlar yer va mol-mulkidan mahrum etilgan va hokazo[8:111-112].

Xulosa. XX asrning 20-30-yillarida Surxon vohasida xotin-qizlar masalasi nihoyatda murakkab va ziddiyatli ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida kechdi. Sovet hokimiyati tomonidan e‘lon qilingan "Hujum" kampaniyasi ayollarni paranjidan xalos etish, savodxonligini oshirish va ijtimoiy mehnatga jalb qilishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, bu harakat mahalliy xalqning asriy an‘analari, diniy e‘tiqodi va turmush tarzi bilan keskin to‘qnashdi. Boysun, Sherobod va Termiz kabi tumanlarda ayollar bo‘limlari tashkil etilib, xotin-qizlar o‘rtasida madaniy-ma‘rifiy ishlar olib borilganligi, natijada ilk shifokorlar, o‘qituvchilar va davlat arboblarning yetishib chiqqanligi jarayonning ijobiy tomoni bo‘ldi. Biroq, bu "ozodlik" siyosati ko‘plab fojialarni ham keltirib chiqardi: an‘anaviy jamiyatning qarshiligi natijasida Istinoi Bo‘ronova va Xojar Boboqulova kabi faol ayollar qurbon bo‘ldi, minglab xotin-qizlar esa mafkuraviy tazyiqlar ostida qoldi. Shu bilan birga, ayollarning og‘ir jismoniy va qishloq xo‘jaligi ishlariga majburan jalb etilishi ularning salomatligi va oilaviy munosabatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasidagi bu davr islohotlari ayollarning ijtimoiy faolligini oshirgan bo‘lsa-da, milliy qadriyatlarning kamsitilishi va majburiy choralar tufayli o‘zbek ayollari hayotida chuqur ma‘naviy va jismoniy jarohatlar qoldirgan ziddiyatli davr bo‘lib tarixga kirdi.

Adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 608 b.
2. Tursunov S., Qobulov E., To‘xtayev A. Termiz tuman tarixi. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2022. – 320 b.
3. Tursunov S., Qobulov E., Murtozoyev B., Pardayev B., Umarov I. Termiz tarixi. – Toshkent: YANGI NASHR, 2019. – B. 292.
4. Tursunov S.N., Eshboyev Q. Sho‘rchi tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 316 b.
5. Tursunov S., Tursunov A., Tog‘ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 353 b.

6. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. – 501 b.
7. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. –Toshkent: Akademnashr, 2011. –551 b.
8. Abdullayeva Ya.A. XIX asrning oxiri va XX asrda Qoraqalpog‘istonda xotin-qizlar masalasi (ijtimoiy-siyosiy aspekt): Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zR FA Tarix instituti, 2005. –337 b.
9. Nishonboyeva Q.V. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari.20–30-yillar. Tajriba va oqibatlar. Tarix fan.diss. avtoref., 1998. – 31 b.